

THE PLACE OF THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF THE TURKISTAN JADIDS IN THE PROCESS OF NATIONAL DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN

Turayeva Marjona Said qizi

Shahrisabz State Pedagogical Institute

1st year master's student of the direction of teaching methods of social sciences
(fundamentals of spirituality)

Email: tmarjona809@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-6816-2085>

Abstract This article discusses the educational activities of the Jadids of Turkestan and the role of these movements in the national development of Uzbekistan, as well as the role of the Jadids in increasing literacy in the rise of the people, the ideas of science and freedom are revealed in their works and through new methods of schools. It talks about the true devotees who even sacrificed their lives to show how necessary science is in awakening the nation.

Keywords: Jadid, enlightenment, Usuli Jadid, Usuli schools, national awakening, press, Ismail Gaspirali, Mahmudkhodja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidkhanov, autonomy, works.

TURKISTON JADIDLARI MA'RIFIY FAOLIYATINING O'ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTI JARAYONIDAGI O'RNI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari) yo'nalishi 1-kurs
magistranti Turayeva Marjona Said qizi

Email: tmarjona809@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-6816-2085>

Annotatsiya Ushbu maqolada Turkiston jadidlarining ma'rifiy faoliyati va bu harakatlarning O'zbekiston milliy taraqqiyotidagi o'rni shuningdek jadidlarning xalqning yuksalishida savodxonligini oshirishda ilm fan va erkinlik g'oyalarini o'z asarlarida va yangi usul maktablar orqali ochib berilgan. Millatni uyg'otishda ilm fan qanchalik zarur ekanligini ko'rsatishda hattoki o'z hayotlarini ham o'rta qo'ygan chinakam fidoiylar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: jadid, ma'rifat, usuli jadid, usuli maktablar, milliy uyg'onish, matbuot, Ismoil G'aspirali, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, muxtoriyat, asarlar.

Аннотация В статье рассматривается просветительская деятельность джадидов Туркестана и роль этих движений в национальном развитии Узбекистана, а также роль джадидов в повышении грамотности и подъёме народа, идеи науки и свободы раскрываются в их трудах и через новые методы обучения. Рассказывается об истинных подвижниках, которые даже пожертвовали своей жизнью, чтобы показать, насколько необходима наука для пробуждения нации.

Ключевые слова: Джадид, просвещение, Усули Джадид, школы Усули, национальное пробуждение, пресса, Исмаил Гаспирали, Махмудходжа Бехбудий, Абдулла Авлоний, Мунавваркори Абдурашидханов, автономия, произведения.

XIX asr oxirida Turkiston xalqi ijtimoiy siyosiy jihatdan bir qancha qiyinchiliklarni boshdan kechirdi. Mustamlakachilik siyosati, xalqning taraqqiyot bo'yicha orqada qolishi, iqtisodiyot tizimidagi tanglik, ilm fan sohasidagi qoloqliklar sabab yuzaga keldi. Shunday qiyin vaziyatda maydonga chiqqan jadidchilik harakati millatni uyg'otdi shu bilan bir qatorda o'zlikni anglashni erkinlik go'yalarni ilgari suruvchi bir qancha asarlar yozildi. Bu harakatlar kelajakda O'zbekiston milliy taraqqiyoti uchun mustahkam dastak vazifasini o'tadi.

Jadidchilik g'oyalarining asosiy maqsadi-Turkiston jamiyatida ilm-ma'rifat, zamonaviy ta'lim, madaniyatni uyg'otish orqali xalqni jaholatdan xurofot g'oyalardan xalos etish va milliy ong va milliy g'ururni uyg'otish edi. Aynan bu harakatlarning shakllanishida Ismoil G'aspiralining o'rni beqiyosdir. U butun turkiy xalqlarida jadidchilikning asoschisi va mafkuraviy yetakchi sifatida tan olingan. Uning mashhur shiori: "Til bir, din bir, fikr bir" jadidchilik birlashuvi, ma'rifat va milliy uyg'onish g'oyalarini ifodalagan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir", — degan so'zlari ayni haqiqatdir. Jadidlarning asosiy vakillari. Jadidlar orasida turli sohalarida faoliyat yuritgan taniqli shaxslar bo'lib, ularning har biri Turkiston jamiyatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Mahmudxo'ja Behbudiy – jadidchilik harakatining otasi hisoblanib, o'zining "Padarkush" asari orqali millatdagi qoloqlikni ota va og'il o'rtasidagi munosabat orqali yaqqol ochib bergan. Munavvarqori Abdurashidxonov – o'zbek jadidlarining yetakchilaridan biri bo'lib, ta'lim sohasida muhim islohotlarni amalga oshirgan. Abdulla Avloniy – "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari orqali jadidlarning tarbiya va axloq haqidagi qarashlarini yoritgan. Fitrat – milliy uyg'onish va islomiy islohotlar tarafdori bo'lib, "Hind sayohati" va "O'zbek adabiyoti namunalari" asarlari orqali xalqni ilmga da'vat qilgan. Cho'lpon – o'z asarlari va she'rlari orqali jadidchilik g'oyalarini keng targ'ib qilgan.

Jadidchilik harakati dastlab ma'rifatparvarlik harakati sifatida shakllanib bordi. Jadidlar nazarida Turkiston xalqlarining orqada qolish sababi na tabiiy sharoitda, na xalqning iste'dodida, balki zamon talabiga mos kelmaydigan ta'lim tizimi, eski fikrlash va mustamlakachilik siyosatining og'ir asoratlarida edi. Shu bois ular jamiyatni isloh qilishning asosiy yo'li sifatida ta'limni yangilashni tanladilar.

Jadidlarning bosh g'oyasi "yangilanish" g'oyasi edi. Ular yangi davrda millatni bu jabr-zulmdan ozod qiluvchi vosita sifatida ilm, madaniyat va tafakkur deb bildilar. Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Avloniy, Ibrat kabi ziyolilar o'z asarlarida xalqni ma'rifatli bo'lishga, zamonaviy bilimlarni egallashga da'vat etdilar. Ularning fikricha, ta'lim tizimini isloh etmasdan turib, siyosiy yoki iqtisodiy mustaqillikka erishib bo'lmas edi. Shu sababli jadidchilik harakati dastlab siyosiy emas, balki ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda rivojlandi. Jadidlar bir qancha muhim amaliy ishlarni amalga oshirdilar. Avvalo yangi usul maktablarini ochdilar. Ular an'anaviy madrasalarda faqat diniy fanlar o'qitilib, dunyoviy bilimlarga e'tibor berilmaganini tanqid qildilar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Is'hoqxon Ibrat va boshqa ziyolilar o'z mablag'lari hisobidan yangi maktablar ochdilar. Bu maktablarda arab alifbosiga asoslangan, ammo o'qitish jarayoni soddalashtirilgan yangi usul– "usulijadid" tatbiq etildi. O'quv dasturlari gamatematika, geografiya, tarix, tabiiyot, adabiyot, onatili kabi fanlar kiritildi. Darslarda kitob bilan birga ko'rgazmali qurollardan, xaritalardan, globuslardan foydalanish boshlanib, ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv kiritildi. Jadidlar

o'z g'oyalarini ommaga yoyishda matbuotdan, teatrda foydalanishdi. "Taraqqiy", "Shuhrat", "Sadoi Turkiston", "Oyna", "Najot", "Hurriyat" kabi gazetalar va jurnallar nashr etildi. Ular orqali jadid ziyolilari xalqni siyosiy, ijtimoiy va madaniy masalalardan xabardor qilib bordilar. Matbuot sahifalarida ta'lim, ayollar huquqi, jamiyatni isloh etish, milliy uyg'onish, vatanga muhabbat mavzulari keng yoritildi. Jadidlar teatrning kuchi nechog'li qudratli ekanligini anglagan holda Mahmudxo'ja Behbudiy 1913-yilda yozgan "Padarkush" dramasi Turkiston sahnasida namoyish etib, bu yo'nalishga asos soldi. Albatta bu haraklar hukumatga yoqmagan va ularga nisbatan bir qancha adolatsizlik va jabr-zulm yetkazishgan. Ammo vatanparvar jadidlarimiz o'z g'oyalarini amalga oshirishda hatto o'z jonlarini ham fido qilishgan. Bu ayanchli voqea 1938 yilning 28 mart kuni Stalin, Molotov, Kagonovich, Voroshilovlar rahbarligida O'zbekistondagi siyosiy elitadan 165 kishini qatag'on qilish haqidagi ro'yxatga qo'l qo'yiladi. Mana shu ro'yxat asosida 4-7 oktyabr kunidagi fojialar ro'y berdi.

155 kishi otuvga, 10 kishi mehnat tuzatish lageriga hukm qilinadi. Xudoybergan Devonov, Cho'lpon, Fitrat, Otajon Hoshim, Abdulla Qodiriy, Anqoboy, Akbar Islomov, Isroil Ortiqovlar 4 oktyabr kuni otib tashlandi. 5 oktyabr kuni esa allaqachon otib tashlangan insonlar go'yoki «sud qilinadi». 4 oktyabr kuni shunchalar ko'p odam otiladiki, Abdulhamid Cho'lponga kelganda hatto o'qlar tugaydi, otuvchilarning o'zi ham charchab qoladi. Cho'lponga seni ertaga otamiz deganida, u: «Bu insonlar yo'q dunyoda bir nafas ham yashashni istamayman, meni hozir otasizlar», deb turib olgani uchun uning boshini bolta bilan chopib o'ldirishadi.

Jadidchilik harakati o'zbek xalqining milliy uyg'onish davrida hal qiluvchi o'rin tutdi. U millatni o'z tarixiga, madaniyatiga, tiliga bo'lgan hurmatni tikladi. Jadidlar xalqni ozodlik, mustaqillik va adolat g'oyalariga da'vat etdilar. Ularning sa'y-harakatlari natijasida Turkiston muxtoriyati kabi siyosiy tashabbuslar yuzaga keldi. Jadidlar milliy istiqlolni ma'rifat, ilm va birlik orqali qo'lga kiritish mumkin deb ishonishgan. Bugungi kunda ularning merosi O'zbekistonda milliyg'oya, ma'naviyat va ta'lim tizimi rivojida asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkentda bo'lib o'tayotgan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga murojaat yo'lladi unda "Barchamizga ayonki, "Tilda, fikrda, ishda birlik" degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'aflat botqog'idan qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar. Shu bilan birga, davlat boshqaruvi, sud-huquq, moliya, soliq tizimlari, yer masalalarini tadrijiy asosda tubdan isloh qilish uchun g'oyaviy va amaliy harakatlar olib bordilar. Bir so'z bilan aytganda, ular milliy uyg'onish, milliy taraqqiyot g'oyasini ro'yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Afsuski, o'sha davrdagi mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum bu ulug'vor maqsadlarni amalga oshirishga yo'l bermadi", – deya ta'kidlaydi Shavkat Mirziyoyev o'z murojaatida.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati O'zbekiston tarixida milliy uyg'onishning asosiy omillaridan biri sifatida tarixda muhim o'rin tutadi. Jadidlar o'z faoliyatlari bilan xalqni jaholatdan ma'rifat sari yetakladilar, ilm-fan, ta'lim va madaniyat rivojiga kata hissa qo'shdilar. Ularning g'oyalari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Behbudiy, Fitrat, A.Avloniy, Cho'lpon singari jadidlarning boy ilmiy-ijodiy merosi yosh avlodni vatanparvarlik, tafakkur erkinligi va ma'naviy barkamollikka undashda beqiyos ahamiyatga

ega. Uchinchi Renessans g'oyasini amalga oshirish yo'lida jadidlarning ma'rifatparvarlik merosi ibrat maktabi sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Behbudiy,M.(1914).“Turkiston qayg'usi”.Toshkent:Turkiston Matbaasi.
- 2.Fitrat,A.(1926).“Qiyomat”.Toshkent:Chulpon nashriyoti.
- 3.Shavkat Mirziyoyev “Jadidlar g'oyasi — Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohang” ma'rifiy kengashdagi nutqidan. Daryo.uz
- 4.Alimov,M.(2013).“Jadidlar va ularning milliy uyg'onish harakatidagi o'rni”.Toshkent: Ma'naviyat.
- 5.Turdiyev,S.(2017).“O'zbek jadidlari va ularning ilmiy merosi”.Samarqand:Samarqand universiteti nashriyoti.
- 6.Poziljonov,J.Q.(2022).“Jadidchilik va milliy uyg'onishda g'oyaviy qarashlar hamda targ'ibot usullari”.Andijon davlat pedagogika instituti.
- 7.Esanov,F.D.(2021).“Jadidchilik harakatining vujudga kelishi va ijtimoiy-falsafiy ahamiyati”.Buxoro davlat universiteti.
- 8.Central Asian Journal of Education and Innovation(2023). “Jadidchilik harakati va Uchinchi Renessans konsepsiyasi”.
- 9.Karimjonova,S.A.(2022).“Jadidchilik harakati va uning o'zbek milliy uyg'onishidagi roli”.Buxoro davlat universiteti.